

## A. FITRAT

**Azimova Nilufar**

buxoro davlat universiteti 1 kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Abdurauf Fitrat shaxsining qomusiyligi turli soha vakillarining e'tiborida bo'lib, uning faoliyati va yaratgan asarlarini o'rganishga doir qator tadqiqotlar amalgamoshirilgan. Bunday faoliyat samarasi o'laroq vujudga kelgan ilmiy adabiyotlarni quyidagi guruhlarga ajratib, tahlil qilish maqsadga muvofiq: 1) XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid asarlar; 2) sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar; 3) mustaqillik davrida O'zbekistonda nashr qilingan ishlar; 4) xorijiy mualliflar yaratgan tadqiqotlar.

**Kalit so'zlar:** taraqqiyot, hurriyat, ma'rifatparvarlik g'oyalari, O'zbekiston Milliy, Ensiklopediyasi, olim, siyosatshunos, gazeta, feodallik, harf, yosh buxoroliklar.

Fitratning serqirra ijodiy va ilmiy faoliyati o'ndan ortiq tarmoqlarni tarkibiga olgan, o'z yurtiga ozodlik istagan olim va siyosatshunosdir. Fitratning fikricha, inson taraqqiyotga qobiligi bilan ustun bo'lar ekan, uning ma'naviy takomili, avvalo, mana shu takomilning ibtidosi bo'lgan ilm-fan taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Sadreddin Ayniy Abdurauf Fitrat haqida shunday fikr bildirgan: - Bu davrning ochiq fikrli yoshlaridan biri - Abdurauf Fitrat edi. Bu shaxs Buxoro talabalari ichida eng qobiliyatli va fozillaridan hisoblanar edi . Abdurauf Fitrat ulkan tarixchi va san'atshunos, filolog, tarjimashunos olim sifatida ilm tarixidan o'rinn olgan. Qomusiy olim qaysi ilm sohasiga qo'l urgan bo'lmisin, u o'sha sohada fanning o'z davri uchun yetuk bilimdoni ekanini ko'rsata olgan. Abdurauf Fitrat -birinchi o'zbek professori, 1926-yili ana shu ilmiy unvonga ega bo'lgan (Abdurauf Fitratning birinchi o'zbek professorligi O'zbekiston Milliy ensiklopediya sida alohida ta'kidlab o'tilgan). Hamidulla Boltaboyevning Abdurauf Fitrat, Zaynabiddin Abdirashidovning Abdurra'uf Fitrat in Istanbul , Nusratillo Naimovning Buxoro jadidlari kitobida Abdurauf Fitrat davridagi xalq ta'limi, xorij bilan iqtisodiy va ma'rifiy aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Abdurauf Fitratning ilmiy faoliyati faqatgina O'zbekistonda emas, balki xorijiy davlatlarda ham yoritilgandir. Fitrat Turkiyada o'qib yurgan paytalaridanoq ilmiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydi. U Istanbuldan yo'llagan maqolalarida ma'rifatparvarlik g'oyalarni ilgari surdi. Fitrat Tong jurnali tashkil etilishiga bosh bo'lgan va yosh avlodni millatparvarlik yo'lida tarbiyalashda uni o'rni katta bo'lgan. Turkiyadan qaytgan Fitrat maktab ishlari bilan shug'ullanar ekan 1915-

1916-yillar davomida qator asarlar ham nashr qildi. Bular Oila, Rahbari najot, Qisqacha islom tarixi va boshqalar. 1920-yillarda Fitratning Chin sevish, Hind ihtilolchilari, Abo Muslim dramalari sahnaga qo‘yildi va o‘z davri adabiy tanqidchilari tarafidan juda iliq kutib olindi. Ayniqsa, uning bu davrdagi ijodi ozodlik tuyg‘ulari bilan to‘lib toshgan edi. Yuqoridagi asarlarning barchasida bir maqsad millat ozodligi, mustaqillik nashidasi, hurriyat, erkinlik mavzusi ilgari surildi. Bu holat uning she’rlarida yaqqol seziladi. Uning Mirrix yulduziga she’rida davrning manzarasi, bolsheviklar siyotsatining tub mohiyati, ular olib borgan siyosat bus-butunligicha ochib berilgan edi.

1917-yildan boshlab Fitrat maorif ishlaridan biroz chekinib, siyosiy faoliyat bilan shug‘ullana boshladi. Buxoro jadidlarining tashabbusi bilan tuzilgan Yosh buxorolilar partiyasi sarkotibligi vazifasini bajardi, Samarqandda nashr qilingan Hurriyat gazetasida avval faol muallif sifatida qatnashgan bo‘lsa, qisqa vaqt o‘tishi bilan uning bosh muharriri sifatida faoliyat olib bordi.

Fitrat asosan 1923-1937-yillarda ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanadi. Tarixshunoslikka oid fors tilida maqola va risolalar ham yozadi. Sergeev bilan birgalikda B. Vyatkin arxivida saqlangan hujjatlarni o‘rganib, rus tilida “Казийские документы XVI века” (1937) kitobini nashr etdi. Abdurauf Fitrat haqida Begali Qosimov shunday fikr bildirgan: - “Fitratning “Abulfayzxon” asari – adabiyotimizda tarixiy mavzudagi birinchi drama”. Filologiya fanlari doktori, professor Naim Karimov shunday fikr bildirgan: - Fitratning yurt qayg‘usi bilan to‘yingan she’riy va nasriy asarları, mustamlakachilikka asoslangan mustabid davlat tuzumini fosh etuvchi dramalari uning erk va hurriyat uchun, mustaqillik uchun mardona kurashgan adib bo‘lganini to‘la tasdiqlaydi . Abdurauf Fitrat shunday fikr bildirgan: Biz Turkiston ziyorilari zamonamizning milliy-ozodlik so‘zlaridan dunyo alohida xalqlardan iborat , ustunlik uchun doimiy kurash olib boruvchi pozitsiyasini qat’iy anglab oldik. Shunga ko‘ra, xalqimiz hayot muvaffaqiyat qozonish uchun, birinchidan, o‘z-o‘zini anglashi, ikkinchidan, taraqqiyot va o‘zini himoya qilishga o‘zini tashkil qilishi kerak”.

Fitratning hayoti va talqinini o‘rganish tarixi va taqdirlari ham murakkab bo‘lgan. Olim haqida yozilgan zamondoshlarining fikrlari esa vaqtli matbuotda cop etilgan. Shular jumlasidandir: Cho‘lponning Chin sevish (Ishtiyoriy gazetasi, 25 noyabr 1920 yil), Turg‘unboyning (Qayum Ramazonov) “Abo Muslim” (“Turkiston” gazetasi, 30 noyabr 1921 yil), Vadud Mahmudning “Chin sevish” (“Qizil O‘zbekiston” gazetasi, 1921 yil) Fitrat Afandining yangi asarları” (“Turkiston” gazetasi, 14 noyabr 1923 yil); bundan tashqari, K. Aliyev, V. Xadjaev va boshqalar maqolalarni ko‘rsatilishi mumkin. Bundan tashqari A. Fitratning o‘ndan ortiq tanlangan she’rlari 1914 yil iyul sonida nashr etilgan Sadoi Turkiston gazetasida nashr etilgan. Mantiqan olib qaraganda Hind ihtilolchilari ni Chin sevish ning davomi deyish mumkin. Lekin ular ayri ikki

asar. Hind ihtilolchilari da Fitratning ona Vatanga bo‘lgan muhabbat, uning erki uchun hamma narsaga tayyor bo‘lgan Yurtimizni qutqaramiz. Yashasin istiqlol!, deb mustabid tuzumga qarshi qo‘zg‘algan isyonkorni ko‘ramiz. Uning 1922-yili nashr etilgan O‘zbek yosh shoirlari to‘plamidan joy olgan O‘gut she’rida Fitratning yurt erkinligi uchun kurash, bir daqiqa ham hurriyatga erishish maslagidan qaytmaslikka undov ochiq seziladi.

Shuningdek A. Fitratning pedagogik qarashlari ham ahamiyatga egadir. Fitrat Forobiynnng Qanday qilib ta’lim berish yoki ta’lim olish, qanday qilib o‘z fikrlarini ifodalash, so‘rash va javob berish masalalariga kelganimizda men fanlar ichida eng birinchi fan til haqidagi fandir; ikkinchi fan grammaтика; uchinchi fan mantiq; to‘rtinchi fan poetikadir, - deb tasdiqlayman, - degan qarashlariga qo‘shiladi va mutafakkirlarning ona tilini o‘rganish haqidagi g‘oyalariga ergashadi. Fitrat ona tilini o‘rganishning zaruryatini ko‘rsatish bilan birga, o‘zbek tilining muhim nazariy masalalarini ham ishlab chiqadi. O‘zbek alifbosi, imlosi va tilini tartibga soladi. U o‘zbek tilshunosligi rivojlanishiga, tilimizning leksik va stilistik me’yorlarini hamda adabiy tilning taraqqiyot yo‘llarini belgilashga, morfologayasi va sintaksisi qonuniyatlarini aniqlashga katta hissa qo‘shdi.

O‘z davrida savod chiqarishning ancha qiyinligini eski yozuvdagi murakkabliklar tufayli deb bilgan Fitrat, gurungchilar safida alifbo va imloda jiddiy islohotlar o‘tkazdi. Arab alifbosining 151 harf va harf qurilishlarini 33 taga tushirdi, hatto o‘zbek tilining unli tovushlarini arab alifbosida ifoda kilishdek eng murakkab vazifani ham ijobjiy hal qildi. Bu alifbo qariyb o‘n yil, lotinlashtiryshgacha ishlatilib kelindi.

Fitrat o‘zbek tilini mustaqil til sifatida rivojlanishi uchun kurashib, uni boshqa tillarning tayziqidan himoya qildi. Bu ishlari bilan u Alisher Navoiydan keyin o‘zbek tilining sofligi uchun kurashgan buyuk allomalardan biri bo‘lib qoldi. Olim o‘zbek tilini usmonli turk tilining lahjasи deb qarovchiparga qarshi chiqdi. Turkchilar turk tilining boyligi va afzalligi’ni maqtab, uni barcha turkiy xalqlar uchun adabiy umumiy turkiy til ga aylantirishga urinayotgan edilar. Lekin Fitrat ularga o‘zbek tilining so‘z boyliga, so‘z yasash imkoniyatlari, grammaтика qoidalarining tugalligini

Muhokama-tul lug‘atayn, Lug‘ati Chig‘otayn, Lug‘ati Navoiy kabi milliy xazinalar misolida isbotlab beradi. Shu bilan u boshqa tillarni ham kamsitmaydi. Tatar, usmonli turk, turk tillarini ham alohida mustaqil tillar sifatida rivojlanishini yoqlaydi. Adib ona tili bilan birga rus va chet tillarni o‘rganishga ham ahamiyat beradi. Keng bilim olish, xorijiy davlatlar fan va madaniyatidan xabardor bo‘lish uchun boshqa tillarni zarur deb biladi.

Fitrat adabiyotni san’at deb atab fanlar qatoriga kiritmasada adabiyotni, ayniqsa, o‘tmish klassik adabiyotni o‘rganishga katta e’tibor beradi, ularni chuqur o‘rganishni targ‘ib qiladi.

Mohir pedagog Fitrat yangi maktablarda o‘qituvchilik qilish bilan birga 1917-yili O‘quv darsligini, 1919-yili Imlo masalalari , "O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba Sarf (1-kitob), 1926-yili Adabiyot qoidalari , kabi qo‘lpanmalar nashr ettiradi.

Darslikdagi hikoyalarda ilm bilan birga mehnat ham ulug‘lanadi, o‘qishning o‘zi ham bir mehnat sifatida ko‘rsatiladi. Pilla urug‘i va Tuyg‘un qanday boy bo‘lgan? hikoyalarida kishining mehnat tufayli hayotda o‘z o‘rnini topishi, obro‘-e’tibor qozona olishi bolalarga misollar bilan isbotlab beriladi.

Darslikdagi hikoyalarning ko‘pchiligi bolalarga axloqiy tarbiya berishga va turli axloqiy xislatlarni singdirishga mo‘ljallangan. Ona sevgisi hikoyasida ona mehrining hamma narsadan ustunligi, uning oldida hatto yovuz hayvon ham bo‘yin egishi ifodalanadi. Bolasini arslon olib ketgan ona uning ketidan boradi va yig‘lab deydi: ... Sen hayvonlarning hoqonisan, o‘ktamlik bilan botirlikdan ortikroq yerliging bordir. Mening shu bolamni ema, och bo‘lsang o‘zimni egil. Men undan kattaroq va semizroq erurman.

Fitratning she’rlari Qrim va Qozon Turklari orasida, shuningdek, G‘arbiy Turkiston, Eron va Germaniya kabi mamlakatlarda keng tarqaldi. jamiyatning barcha qatlamlari orasida qiziqish bilan o‘qilgan. Uning o‘zbek tilidagi ko‘plab she’rlari 1920-yillarda matbuotda, “inqilob”, “qizil qalam to‘plamlarida chop etilgan. 1922-yilda nashr etilgan o‘zbek yosh shoirlari to‘plamida 10 dan ortiq she’riy asarlar mavjud. Fitratning zamondoshi va vatandoshi Sadriddin Ayniy shunday yozadi: - u o‘zbek yozuvchilaridan birinchilardan bo‘lib folklorga oid she’rlar yozgan”.

Fitrat adabiyotshunos olim sifatida ko‘pgina ilmiy asarlarida Sharq she’riyatining jozibali xususiyatlarini tahlil qilgan bo‘lsa, shoir sifatida o‘z she’rlarida o‘z davrining o‘sha jozibasining nozik aksini ko‘rsata olgan. 1920-yillarning eng ashaddiy tanqidchilaridan biri Abdurahmon Sa’diy o‘zining “Behbudiy va uning atrofidagi yozuvchilar” maqolasida shoir Fitratning o‘zbek she’riyati rivojiga qo‘shgan hissasi uning tili va uslubida aks etishini yozgan. U ko‘plab yosh shoirlarni o‘z uslubi va tili bilan boshqarib, atrofiga yosh shoirlarni to‘plab, ularni til va uslub moyi orqali boshqarishga muvaffaq bo‘ldi. Temur Xo‘ja o‘g‘li Izmirda chop etilgan “o‘zbeklar va o‘zbek adabiyoti” kuzatuvlari: Yozuvchilar uyushmasi katta foyda ko‘rdi. Fitrat adabiyot tarixi fani rivojiga ham ulkan hissa qo‘shadi. U o‘zining O‘zbek adabiyoti namunalari da adabiyot tarixini davrlarga bo‘lishni birinchi bo‘lib ishlab chiqadi va quyidagicha davr taqsimotini tavsiya etadi:

1. Qabilaviy adabiyot namunalari. 2. Feodallik davri adabiyoti . 3. Savdo sarmoyasi davri o‘zbek adabiyoti .

Adib bu qo‘llanmasida har bir adabiy davrga xos asarlardan namuna beribgina qolmay, shu bilan birga bu davrning xususiyatlari, madaniy hayotini ham tahlil qiladi.

Fitrat yirik olim, adabiyotshunos sifatida ham bir qancha asarlar yaratgan. Jumladan, «Adabiyot qoidalari», «Eski o‘zbek adabiyoti namunalari», “Aruz haqida” kabi ilmiy kuzatuvlari adabiyotshunoslik fani tarixida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, uning Umar Xayyom, Firdavsiy, Navoiy, Bedil, M. Solih, Muqimiy, Furqat haqidagi tadqiqotlari ham adabiyotimiz tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat etishi shubhasiz. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy kabi o‘ndan ortiq mumtoz adabiyot vakillari haqida maqolalar yozgan. Fitrat ayni chog‘da olim, ulkan pedagog, xalq maorifi tashkilotchisi sifatida ham faol ishladi. 1921-1923 yillarda u Respublika Maorif xalq noziri bo‘lib xizmat qildi. 1923-1924 yillar orasida Moskvadagi Sharq tillari institutida, so‘ng Peterburg dorilfununida ma’ruza o‘qidi. “O‘zbek tili” darsligi, “O‘zbek tili sarfi” (grammatikasi) kitoblari esa 1925-1930 yillarda besh marta chop etildi. Uning “Tilimiz”, “O‘zbekcha til saboqlari”, “Imlo konferensiyasi munosabati bilan” maqolalari ham yaratildi.

Fitratning Turk tili va adabiyoti rivojiga qo‘shtgan hissasi Ahmad Zaki Validi To‘gon, Edvard Allvort, Boymirza Hayit, Mehmed saroy, Yusuf Avcı kabi xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida xolisona namoyon bo‘ldi. Ushbu manbalarda Fitrat dramaturg va olim, Nosir va publisist sifatida tilga olinadi, lekin u doimo “shoir” sifatida tasvirlanadi, bu nafaqat shaxsiy munosabat belgisi, balki uning she’riy iste’dodiga alohida hurmat belgisidir. 1920-1923-yillar davomida yangi tuzilgan Buxoro hukumati tarkibida turli yuqori lavozimlarda ishlagan Fitrat turli siyosiy ayblovlar bilan ishdan bo‘shtaldi va Moskvadagi Jonli sharq tillari institutiga yuborildi. Shu davrdan boshlab Fitrat umrining oxiriga qadar faqat ilmiy izlanishlar bilan mashg‘ul bo‘ldi.

Fitrat 1938-yil 4-oktyabrda Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Otajon Hoshim, Qayum Rhamazon, G‘ozi Olim kabi xalqimizning buyuk ziyolilari qatorida qatl etildi. Faqat 1956 yilga kelib u oqlandi. Oqlandiyu, qariyb yana o‘ttiz besh yildan so‘nggina, mustaqillik davri sharofati bilan u haqdagi haqiqatni aytish va yozish imkoniyati tug‘ildi. Abdurauf Fitrat hayoti va adabiy faoliyati ziddiyatlarga o‘ta boyligi bilan ajralib turadi. 1991-yil 25-sentyabrda Abdurauf Fitratga o‘zbek dramaturgiyasini rivojlantirishdagi, realistik adabiy tanqidchilik hamda adabiyotshunoslik maktabiga asos solishdagi xizmatlari uchun Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti berildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. N. Karimov. XX asr adabiyoti manzaralari. Toshkent: O'zbekiston, 2008. B. 8.
2. Beningsen A. Chantal Lemercier-Quelquejay. La presse et le mouvement national chez les Musulmans 1920. Mouton 1964: Souper John Two banned Uzbek writers to be republished Ankara 1997
3. Ngeborg Baldauf. Some thoughts on making of the UzbekNation. Berlin 1991. Vol 32 n 1 79 -96
4. Boltaboev H. Nature and the spirituality of independence. // Abdurauf Fitrat. Selected works. Volume 1 Tashkent: Spirituality . 2000. -p.28.
5. Axrorova D. Enlightenment-pedagogical views of Abdurauf Fitrat. NDA. Tashkent: 1998.